

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**BUXORO OZIQ- OVQAT VA YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI
INSTITUTI**

«Pedagogika va psixologiya» kafedrası
Axmedjanov M.M., Bakieva S.N.

“PEDAGOGIKA”

fanidan - 5140900 «Kasb ta`limi» bakalavriat yo`nalishlari uchun
amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha

USLUBIY KO'RSATMA

BUXORO – 2010

Taqrizchilar: Ichki taqrizchi:

dots. Halimov e.Z.

Tashqi taqrizchi:

dots.Xo`jaev B.Q.

Uslubiy ko`rsatma kafedra yig'ilishida muhokama qilinib uslubiy ko`rsatma sifatida chop etishga tavsiya etilgan. (28 avgust 2010 yil)

Ko`rsatma institut uslubiy kengashida muhokama qilinib, uslubiy ko`rsatma sifatida chop etishga ruxsat berildi. (____son bayonoma ____20__ y)

Ushbu uslubiy ko`rsatma «Pedagogika asoslari» fani bo'yicha amaldagi dastur va tavsiyalar asosida tuzilgan. Ko`rsatma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining hozirgi talablariga javob beradi. Ko`rsatmada «Pedagogika asoslari» fanidan amaliyot darslarida amaliy ishlarni yozma ish tariqasida bajarish bo'yicha uslubiy maslahatlar, ularning mavzulari, rejalari, adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Uslubiy ko`rsatma kunduzgi bo'lim talabalari uchun mo'ljallangan. Talabalar uslubiy ko`rsatmadan foydalangan holda oliy o'quv yurtining talab darajasidagi nazorat ishini bajaradilar.

MUNDARIJA:

KIRISH	4
FANNING MAQSADI VA UNING O`QUV JARAYONIDAGI O`RNI.....	5
FANNING TARKIBI:	
ORALIQ BAXOLASH MEZONLARI.....	14
"PEDAGOGIKA" FANIDAN BALLAR MEZONI.....	16
"PEDAGOGIKA" FANIDAN AMALIY ISHLARNI BAJARISH BO`YICHA SEMINAR MAVZULARI VA REJALARI.....	17
"PEDAGOGIKA" FANIDAN TESTLAR.....	23
"PEDAGOGIKA "FANIDAN YAKUNIY NAZORAT SAVOLLARI.....	33
FAN BO`YICHA O`QUV- USLUBIY MA`LUMOTLAR	45

KIRISH

Insoniyat paydo bo'lishi zahotiy oq ilm va tarbiyaviy sifatlar, uning yashashi, xayot kechirishi uchun eng zaruriy shart va vositalar ekanligini anglab boradi. Shuning uchun insoniyat jamiyatning ilk ko'rinishlaridan tarbiya bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarqa extiyoj tug'ildi desak, biz tarbiyani faqat bir tomonlama, agar faqat yoshlarni tarbiyalash yoki tarbiyachi o'zida boshqalarni tarbiyalovchi desak, tarbiya yanada ham tor qaralgan bo'ladi.

Tarbiyani eng avvalo insonning o'ziga qaratilganliga Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan butun dunyo hamjamiyati tan olgan, qadamba-qadam amalga oshirilayotgan «O'zbek modeli»da juda to'g'ri belgilandi. Dunyoda birinchi insonni diqqat-e'tibori uni o'zligini anglashqa qaratildi. O'zligini anglash **birinchidan**, uning ozod, erkin, nodir, iymonligini anglash va o'zida unga amal qilish sifatlarini shakllantira borish bo'lsa, **ikkinchidan**, uning o'ziga xos milliy-insoniy sifatlarini ochib beruvchi etnik, ma'naviy insoniy asoslarini anglash va ularga amal qilishdan iborat.

1. FANNING MAQSADI VA UNING O`QUV JARAYONIDAGI O`RNI

1.1 Fanni o`tishdan maqsad

Pedagogika fanidan tuzilgan ushbu o`quv reja va dasturda Mustaqil O`zbekistonda yashab ijod qilayotgan bo`lajak mutaxassislarni barkamol inson qilib yetkazishni ta`minlovchi pedagogika bilimlar asosi yoritilgan. Bu dastur o`qituvchi - tarbiyachilik kasbining bakalavr yo`nalishi ixtisosligiga mo`ljallangan.

"Pedagogika" fanining asosiy maqsadi: O`zbekiston Respublikasi butun jahon bilan yuzma-yuz bo`layotgan bir davrda uning iqtisodiy, siyosiy, ma`naviy, ma`rifiy, yuksalishini ta`minlovchi, istiqlol mafkurasini o`zlashtirgan mutaxassislarni tayyorlash, ularga tarbiyashunoslik san`ati va mahoratini shakllantirishdan iboratdir. Shuning bilan birga bu fanni oliy ta`lim maktabida o`qitish jarayonida rivojlantirish va takomillashtirish, talabalarning inson va jamiyat haqida mavjud tasavvurlarini kengaytirishdan, ularning voqelik bilan o`zaro munosabati hamda ular oldidagi ma`suliyat tushunchalarini shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda pedagogika fani quyidagi vazifalarni hal etadi:

- pedagogik bilimlar majmui bilan talabalarni qurollantirish va ularni amalda qo`llash, malakalarini shakllantirish;
- milliy istiqlol talablari alohida ta`lim-tarbiyaning san`ati, mahoratiga doir ma`lumotlar bilan talabalarni qurollantirish;
- milliy ma`naviyatimiz durdonalari bo`lgan o`tmish madaniyatimiz, pedagogik ta`limot, allomalarimizning maktab, ta`lim-tarbiyaga doir qarashlari to`g`risida ma`lumot berish;
- talabalarga pedagogik jarayon qonuniyatlari, tamoyillari, shakllari, metodlari, usullari, vositalari to`g`risida tushuncha berib, ularni mustaqil egallash ko`nikmalarini shakllantirish;
- milliy mustaqillik sharoitida O`zbekiston Respublikasidagi ta`lim tizimi, turlari, ularning vazifalari, yangi pedagogik fikrlar bilan bo`lajak pedagoglarni tanishtirish.

Dastur ijodiy metodik mazmunga ega bo`lib, talabalarni izlanishga, ilg`or tajribalarni umumlashtira olishga qaratilganligi sababli o`quv rejasiga binoan kurs ishini yozishga, munozara-bahslarda ishtirok etish, mustaqil bilim olishni nazarda tutadi va dasturda ularning mavzulari namuna sifatida keltirilgan.

1.2. Fanning o`rganadigan muammolari.

Dastur talablariga ko`ra talabalar quyidagi bilim, ko`nikma, malakalarga ega bo`lishlari lozim:

- ta`lim-tarbiyaning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotidagi o`rni va rolini bilish;
- barkamol shaxsni shakllantirishning usul va shakllarini o`rganish;
- mamlakatdagi ta`lim tizimi, turlari va ularning vazifalarini anglash;
- tarbiya, ta`lim jarayonini harakatlantiruvchi kuchlar, qarama- qarshiliklarning mohiyat-mazmunini tushunib olish;

- yosh davrlarga pedagogik tavsif berish;
- akademik litsey, kasb-hunar kolleji va oliy ta'lim maktablarida bilimlarni egallashning asosiy bosqichlarini bilib olish;
- ta'lim-tarbiyaning qonuniyatlari, printsiplari, shakl va usullarini egallab olish;
- turli tarixiy davrlarda pedagogik fikr, maktab, tarbiya to'g'risidagi ma'lumotlar bilan qurollanish;
- o'quv yurtlari (kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar)ni boshqarish va ularga rahbarlik qilishning qonun - qoidalarini o'rganish;
- o'quv yurtlari talabalarining ota-onalari bilan ishlash malakasiga ega bo'lish.

1.3. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.

Pedagogika fani mustaqil, o'z o'rganish sohasiga ega bo'lishi bilan birga, boshqa fanlar bilan bog'lanmay rivojlana olmaydi. Shunga asosan pedagoglarning tarbiyaviy faoliyat ob'ekti inson bo'lganligi sababli pedagogika fani dastlab yosh fiziologiyasi va psixologiya fanlariga tayanadi. O'z navbatida pedagogika pedagogik psixologiya, pedagogik mahorat asoslari, yangi pedagogik texnologiya, nutqshunoslik fanlari, ishlab chiqarish ta'limini o'qitish metodikasi, psixologik-pedagogik diagnostika fanlari uchun tayanch fan bo'lib hisoblanadi.

Pedagogika ijtimoiy fanlar falsafa, sotsiologiya, etika, estetika kabi fanlarning ma'lumotlaridan ham keng foydalanadi. Pedagogika nazariyasi va tarbiya tajribasining rivojlanish tarixini o'rganadi. Shu jumladan pedagogika tarix va madaniyat tarixi fanlari bilan aloqadordir.

Shaxsning shakllanishi va rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning o'zaro bog'liqligi kabi murakkab masalalarni hal etishda pedagogika genetika fani bilan ham bog'lanadi.

1.4. Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining talablariga javob beradigan yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni, o'qitishni modul va distantsion ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini, talabalarning o'zlashtirishini baholashning reyting tizimi, test tuzishga qo'yilgan talablar. Jamoaga pedagogik rahbarlik, talabalarni axloqiy, estetik o'quv jarayoniga tadbiq qilinadi va mehnatga tarbiyalash yo'llari vositalarini ishlab chiqishga o'rgatiladi.

1.5. Fanni o'qitish semestrlari va metodik ko'rsatmalar.

"Pedagogika" fani o'qitish jarayonining III semestrda o'qitiladi. Bu V. 514 09 00 "Kasb ta'limi" yo'nalishidagi kasb xususiyatidan kelib chiqadi va uni o'qitish amalga oshiriladi. Bu fanni o'qitish bo'yicha hammasi bo'lib, 135 soat ajratiladi. Uni o'qitishning ma'ruza, amaliy ish, mustaqil ish shakllari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha bo'ladi.

Ma	Mashg'ulot tarkibi va hajmi		Nazorat turi
	Auditoriya soatlari		Reyting (ball)

	Ham- masi	Jami	Ma`ruza	Amaliy mashg'ulot (seminar)	Tajriba mashg'ulotlar	Kurs ishi (loyiha)	Mustaqil ish	N	OB	YaB	MIB
III	135	80	40	40			55				

2.FANNING TARKIBI:

2.1 MAVZULARNING NOMI, ULARNING MAZMUNI, ULARGA AJRATILGAN SOATLAR MIQDORI.

I bob. Pedagogikaning umumiy asoslari. (8 soat)

2.1.1. Pedagogika fanining mavzusi va ilmiy tadqiqot metodlari (2 s)

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi iqtisodiy-ijtimoiy hayotning talabi ekanligi. O`rta-Osiyoda dastlabki pedagogik fikrlarning paydo bo`lishi va uning xalq og`zaki ijodiyotida ifodalanib fozil insonni shakllantirish uchun xizmat qilganligi.

Pedagogika - tarbiya haqidagi fan. Tarbiyaning ijtimoiy xodisa ekanligi. Tarbiya va hayotning birligi. Ziddiyatlar tarbiya manbai va harakatlantiruvchi kuchi sifatida. Asosiy pedagogik tushunchalar (tarbiya, ta`lim, ma`lumot). Ularning mazmuni va milliy qadriyatlar bilan boyitilishi. Pedagogika fanlari tizimi va unga yaqin bo`lgan fanlar. Pedagogik tadqiqot metodlari.

Tayanch iboralari: Tarbiya, ta`lim, ma`lumot, pedagogik fikr, og`zaki ijodiyot, ijtimoiy hodisa, hayot birligi, tarbiya manbai, milliy qadriyat, fanlar tizimi, tadqiqot metodlari

2.1.2. Mutaxassis shaxsini shakllantirish, tarbiyalash va rivojlantirish (2 s.)

«Odam», «Inson», «Shaxs» tushunchalari haqida ma`lumot. Pedagogikada shaxs tushunchasi. Kishilik jamiyati taraqqiyotida shaxsni shakllantirish muammolari, shaxs rivojlanishiga ta`sir kiluvchi omillar (irsiyat, muxit, tarbiya). O`rta Osiyo allomalari va mutafakkirlari ta`limotida shaxs kamoloti.

Prezident orzusidagi shaxs. Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs. Shaxsga xos bo`lgan sub`ektiv sifatlar: onglilik, javobgarlikni xis qilish, o`z qadrini bilish, bola tabiatini o`rganish va tarbiyalash. Bola shaxsining rivojlanish bosqichlari va tarbiyada uni hisobga olish. Rivojlanishning individual xususiyatlari.

Tayanch iboralari: «Odam», «Inson», «Shaxs», shaxs tushunchasi, kishilik jamiyati, shaxsni shakllantirish, Prezident orzusi, kadrlar tayyorlash, sub'ektiv sifatlar, ongliklik, javobgarlik, o'z qadrini bilish, bola tabiatini o'rganish, shaxsning rivojlanishi, individual xususiyatlar.

2.1.3. Barkamol avlod tarbiyasining maqsad va vazifalari (2s)

Barkamol insonni tarbiyalash-mustaqil O'zbekiston Respublikasining bosh maqsadi. Kelajak avlodning ilmiy, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy salohiyati. Jamiyat va shaxs kamolotida imon, e'tiqod, mexr-oqibat, axloq-odob kabi insoniy fazilatlarining o'rni. Barkamol avlod tarbiyasining aqliy, axloqiy, g'oyaviy-siyosiy (mafkuraviy), estetik, huquqiy, iqtisodiy, ekologik mehnat va kasb-kor, diniy, badiiy kabi tarkibiy qismlari. Yoshlarni kasb-hunarga qiziqitirish va yo'naltirish pedagogika fanining bosh vazifasi sifatida.

Tayanch iboralari : barkamol inson, mustaqil O'zbekiston, kelajak avlod, madaniy salohiyat, ma'naviy salohiyat, jamiyat va shaxs, e'tiqod, mehr – oqibat, axloq – odob, barkamol avlod, tarkibiy qism.

2.1.4. O'zbekistonda tarbiya va ta'lim tizimi (2s)

Xalq maorifi tushunchasi. O'zbekistonda xalqmaorifi tizimining rivojlanish xususiyatlari. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari. Ta'lim muassasalarining tashkilotlar (faylasuflar, tarixchilar, ma'rifatparvarlar jamiyati) va jamg'armalar bilan hamkorligi. Kasb-hunar kollejlari ta'limining davlat ta'lim standarti.

Tayanch iboralari: Xalq maorifi, rivojlanish xususiyatlari, uzluksiz ta'lim, ta'lim tizimi, ta'lim turlari, tashkilot, jamg'arma, kasb – hunar kolleji, davlat ta'lim standarti.

II bob. Turli tarixiy davrlarda tarbiya va pedagogik fikr. (12 soat)

2.1.5. O'rta Osiyoda pedagogika tarixi fanining maydonga kelishi va rivojlanishi, manbalari. (2 s)

Pedagogika tarixi fan va o'quv predmeti sifatida. Pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifalari. Pedagogika tarixi ilmining manbalari ilmiy nazariy va milliy asoslari hamda asosiy bo'limlari. eng qadimgi davrlardan XIII asrgacha O'rta Osiyoda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. Zardushtiylik ta'limotida ta'lim-tarbiya. «Avesto» eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklar namunasi sifatida. VII-XIII asrlarda O'rta Osiyoda ijtimoiy va madaniy hayot, maktab va pedagogik fikr. Islomda ta'lim-tarbiya. Madrasalar va xadis ilmining paydo bo'lishi. Imom Ismoil al Buxoriy, Imom at-Termiziyning xadis ilmining yoyilishidagi xizmatlari. Abu-Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Az-Zamaxshariyning dunyoviy bilimlarni tarqalishidagi o'rni.

Tayanch iboralari: Pedagogika tarixi, o'quv predmeti, fan maqsadi, manba, ilmiy nazariy asos, qadimgi davr, ma'rifiy yodgorlik, zardushtiylik ta'limoti, ijtimoiy hayot, pedagogik fikr, dunyoviy bilimlar.

2.1.6. Temuriylar davridan XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoda

ijtimoiy hayot, tarbiya, maktab va pedagogik fikr (2s)

XIV-XVI asrlarda Movaraunnaxrda ijtimoiy hayot va uning ta'lim-tarbiya, pedagogik fikrga ta'siri. Maktablar va madrasalarda ta'lim-tarbiya harakatlari. Tabiiy fanlarni o'qitishning rivojlanishi. Muhammad Tarag'ay, Mirzo Ulug'bekning ilm va ma'rifat sohasidagi xizmatlari. Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Al - Koshifiy, Zaxiriddin Muhammad Bobirning maktab, madrasalarni rivojlantirishdagi faoliyatlari va axloqiy – ma'rifiy qarashlari. Nodiraning pedagogik qarashlari. Qo'qon va boshqa xonliklarda xotinlar maktabi. Jahon Otin - Uvaysiy va uning qizlar maktabi. Muxammad Rizo Ogahiy va uning «Ogohnoma» qoidasi. Kaykovusning «Qobusnoma», Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston» asarlarida axloqiy ma'rifiy g'oyalarning yoritilishi.

Tayanch iboralari: Movaraunnahr, maktab va madrasa, ta'lim – tarbiya harakatlari, ma'rifat xizmatlari, faoliyat, axloqiy - ma'rifiy qarash, xotinlar maktabi, axloqiy – ma'rifiy g'oya.

2.1.7. O'rta Osiyo va O'zbekistonda XIX asrning ikkinchi yarmi xamda XX asrda maorif, tarbiya, maktab va pedagogik fikr (2s)

Turkiston Rossiya istilosi davrida. Undagi ijtimoiy-siyosiy hayot. A.II'inskiy, V. Nalivkinlar tomonidan tashkil etilgan maktablar. Turkiston o'lkasidagi ma'rifatparvar shoirlar: Furqat, Avaz O'tar, Anbar Otinlarning ilm-savod olish, til o'rganish xususidagi fikrlari. Ahmad Donish ma'naviy merosining ahamiyati.

Turkistonda yangi usul maktablarining paydo bo'lishi, Bexbudiy, Munavvar Qorining faoliyati. X.X. Niyoziy, A. Shaforiy, A. Avloniy, S. Ayni, Ibrat va boshqalarning maktab va maorifni rivojlantirishdagi xizmatlari. Oktyabr' to'ntarishi va sobiq Sovet Turkistonida yangi maktablar, savodsizlikni tugatish borasidagi olib borilgan ishlar. Xotin-qizlar ta'limi.

Sho'rolar davrida O'zbekistonda maktab, lotin alfavitining kiritilishi.(1928). Sobiq O'zbekiston SSR MK va Xalq Komissarlar Sovetining «Respublikada bolalar va o'smirlar umummajburiy boshlang'ich ta'limini joriy etish to'g'risida»gi 1930 yil 15 sentyabr qarori.

O'zbek yozuvining rus grafikasiga ko'chirilishi VKP (b) Mkning 1936 yil 4 iyul qarori O'zbekiston SSR da maktabni hayot bilan bog'lash to'g'risidagi O'zbekiston SSRning 1959 yilgi qarori 60-80 yillarda maktab, maorif va pedagogik fikr G'.G'ulom, A. G'ayratiy, O. Sharofiddinovning hayoti, faoliyati, pedagogik g'oyalari. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari (2 iyul 1992 yil va 29 avgust 1997 yil) Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining qabul qilinishi (1997 yil 27 avgust) Dasturni amalda tadbiq qilishning – bosqichida pedagogika fanining vazifalari (5 mart 2002 yil).

Tayanch iboralari: Furqat, Avaz O'tar, Anbar Otin, Axmad Donish, umummajburiy boshlang'ich, ijtimoiy-siyosiy hayot, maorif.

2.1.8. Qadimgi Yunoniston va Yevropada tarbiya, maktab va

pedagogik fikr. (Suqrot, Platon, Aristotel') (2s)

Qadimgi Gretsiyada maktab va pedagogik g'oyalarning kelib chiqishi. qadimgi Yunonistonda pedagogik ta'limot (Suqrot, Aflotun, Aristotel') va tarbiya tizimi.

Qadimgi Rimda tarbiya va maktab. Kvintilian asarlarida ta'lim va tarbiya masalalari. Xristian dinining kelib chiqishi va uning ta'lim-tarbiya hamda pedagogik fikr rivojiga ta'siri.

Tayanch iboralari: efeb, Sparta, Afina, ritorika, Suqrot, Aflotun, Aristotel.

2.1.9. Yevropada XVI-XX asrda tarbiya, maktab va pedagogik fikr (Yan Amos Komenskiy, Jan Jak Russo, K.D. Ushinskiy, Makarenko, V. Suxomlinskiy (2s)

Ya.A.Komenskiyning pedagogik tizimi va uning keyingi taraqqiyot uchun ahamiyati.

J.J. Russo asarlarida tarbiya nazariyasi. Dastlabki ta'lim nazariyasi va metodikaning yaratilishida Y.G.Pestalotstsining qissasi. A.Disterverg, I.F. Gerbart, R.Ouenning pedagogik g'oyalari. Rus pedagog olimlari M.V.Lomonosov, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.R.Suxomlinskiylarning pedagogik ta'limoti. Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi davrlarda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta'lim-tarbiya va maktab.

Tayanch iboralari: Ya.A.Komenskiy, J..J. Russo, M.V.Lomonosov, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, V.R.Suxomlinskiy.

2.1.10. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr. (2 s)

XX asr oxiri XXI asr boshlarida rivojlangan davlatlar (AQSh, Germaniya, Angliya, Frantsiya, Yaponiya) da ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot. AQShda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr. Frantsiya ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari. Yaponiya ta'lim-tarbiya tizimi va uning jahon ilmiy-texnikaviy taraqqiyotiga ta'siri. Germaniyada ilg'or pedagogik texnologiyalarning maydonga kelishi va uning G'arb hamda Sharq ta'lim tizimiga ta'siri.

Tayanch iboralar: AQSh, Germaniya, Angliya, Frantsiya, Yaponiya, ijtimoiy-siyosiy hayot, madaniy hayot, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'lim tizimi.

III bob. Tarbiya nazariyasi. (10 soat)

2.1.11. Tarbiya jarayonining mohiyati, printsiplari. Sharqona tarbiyaning nazariy, milliy asoslari. Tarbiya metodlari (2s)

Tarbiya jarayonining mohiyati va qonuniyatlari. Tarbiya jarayonini xarakatlantiruvchi kuchlar. Tarbiya, o'z-o'zini va qayta tarbiya. Tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi, mehnatda tarbiyalash, jamoaviylik, ta'sirlarning uzviyligi, tizimlili. Tarbiyada milliy udum va odatlar. Tarbiyaning kuchi,

xususiyatlari, Tarbiyalanganlik ulug' ne'mat. Bu haqda sharq allomalari, ulug' pedagoglar.

Tayanch iboralari: Ularning guruhlanishi. Ishontirish, maslahat berish, o'g'it-nasihat, ko'ndirish, tushuntirish, tilak-istak bildirish va hokazolar ijtimoiy ongni shakllantirish metodi sifatida. Xulq-atvorni shakllantirish usullari: milliy o'yinlar, odatlantirish, o'rgatish, mashqlantirish, talab, ibrat-namuna, jamoatchilik fikrini uyg'otish. Tarbiyada musobaqa, rag'batlantirish va jazolash metodlari.

2.1. 12.O`quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash. Ma'naviy-axloqiy tarbiya (2s)

Ilmiy dunyoqarashning mohiyati, yo'nalishlari, funktsiyasi. O'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarga ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish. Dinning tarbiyaviy xususiyatlari. Yaxlit o'quv-tarbiya jarayonida grajdanlik tarbiyasi.

Axloq - ijtimoiy ong, inson kamolotining muhim tomoni sifatida. Axloqiy tarbiyaning mohiyati, mazmuni, funktsiyasi. O'tmish diniy va dunyoviy bilim egalari, axloqiy-ma'naviy tarbiya to'g'risida. Axloqiy tarbiyalanganlikning mezonlari. Axloqiy-ma'naviy tarbiyada milliy o'yinlar, bayram va marosimlarning o'рни. Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ongli intizom. Madaniy xulq va uning ongli intizomni tarbiyalash bilan aloqasi.

Tayanch iboralari: Ilmiy dunyoqarash, yo'nalishlar, diniy tarbiya, tarbiya manbai, milliy qadriyat, fanlar tizimi, tadqiqot metodlari, axloqiy tarbiya, diniy bilim, dunyoviy bilim, axloqiy tarbiya, ma'naviy tarbiya, milliy o'yinlar, madaniy xulq.

2.1.13.Yuksak madaniyatli mutaxassis va uning huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiyasi. (2s)

Huquqiy tarbiyaning mohiyati, maqsad va vazifalari. Yaxlit o'quv-tarbiya tizimida huquqiy, iqtisodiy va ekologik tarbiya. ekologik tarbiya-bugungi kunning dolzarb masalasi. O'quvchi-yoshlarda huquqiy bilimdonlik, tejamkorlik va tabiatni asrash tuyg'usini tarbiyalash.

Tayanch iboralari: huquqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, huquqiy bilimdonlik, tejamkorlik.

2.1.14. Bola tarbiyasida oila, o`quv yurti, mahalla va jamoatchilik hamkorligi (2s)

Hayotda oilaning o'рни. Oila saodat sarchashmasi. Insonning kelajagi, oilaga va oilaviy munosabatga bog'liqligi. Oila tarbiyasining mazmuni va mohiyati. Oila tarbiyasiga pedagogik rahbarlik. Oilaviy tarbiyada milliy qadriyatlar. Shark mutafakkirlari ta'limoti. «Oila» yilining Prezident tomonidan e'lon qilinishi va uning tarbiyaviy ahamiyati. Oila tarbiyasida ota-onaning namunasi. Oilada pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari va metodlari.

Pedagoglarning ota-onalar bilan hamkorligi. Mahalla oiladan, Vatan mahalladan boshlanadi. O'quvchilar tarbiyasida «Oila, mahalla, maktab» yo'riqnomasining

ahamiyati, tamoyillari, bosqichlari. O`quv yurtida ota-onalar, jamoatchilik qo`mitalari va ularning ish shakllari.

Tayanch iboralari: Oila, mahalla, jamoatchilik, tarbiya manbai, milliy qadriyat, fanlar tizimi, tadqiqot metodlar.

2.1.15. Kasb-hunar kollejlarda ma`naviy- ma`rifiy tarbiya ishlarini tashkil etish. (2s)

Ma`naviy-ma`rifiy tarbiya haqida ma`lumot. O`quv yurtida ma`naviy-ma`rifiy tarbiya tizimi, printsiplari, mazmuni. Ma`naviy-ma`rifiy tarbiya ishlarini rejalashtirish. Tarbiyaviy ishlarining asosiy shakllari. O`qish ishlaridan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning yangi yo`nalishlari. «Maktabdan tashkari ta`lim»ga qo`yiladigan davlat talablari. Ta`lim muassasalarida tashkil etiladigan talaba-yoshlarning o`z-o`zini boshqaruvi. O`quv yurtida ma`naviy-ma`rifiy tarbiya soatini o`tkazish metodikasi.

Tayanch iboralari: Ma`naviyat, ma`rifat, o`z-o`zini boshqarish, ma`naviy-ma`rifiy tarbiya, maktabdan tashqari ta`lim

IV bob. Ta`lim nazariyasi (Didaktika) (4 soat)

2.1.3. 2.1.16. Didaktika fanining predmeti va vazifalari. Ta`lim jarayonining mohiyati, qonuniyati, printsiplari. Turli tipdagi kasb - hunar kollejlarda ta`limning mazmuni. (2s)

Didaktika ta`lim nazariyasi to`g`risidagi fan. Didaktikaning asosiy kategoriyalari: ta`lim printsiplari, ta`lim mazmuni, metodlari, o`qitishning tashkiliy shakllari, o`qish, o`qitish. Ta`lim nazariyasining asoschilari Farobiy, Ibn-Sino, az-Zamaxshariy, Beruniy, Zarnidjiy, Yan Amos Komenskiy, Disterverg, K. D Ushinskiy. O`qitish nazariyasining milliy mustakillik davridagi muammolari. O`qitish nazariyasi va xususiy ta`lim metodikasi. Oliy, o`rta maxsus va kasb -hunar ta`limida o`qitish va shaxs tarbiyasining o`zaro bog`liqligi.

Ta`lim jarayonining mohiyati va qonuniyatlari. Ta`lim jarayonining ma`lumot beruvchi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funktsiyalarining birligi. O`qitish jarayonida talabalar o`quv faoliyatining psixologik asoslari. Ta`limni harakatlantiruvchi kuchlar va ta`lim jarayonida qarama - qarshiliklar.

O`qitishning ilmiylik, nazariya bilan amaliyotning birligi, onglilik, faollik, ko`rgazmalilik, o`quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish kabi printsiplari va ularning o`zaro bog`liqligi.

Ta`lim mazmuni haqida ma`lumot va uning barkamol avlodni tarbiyalash tizimidagi o`rni. O`zbekiston o`rta - maxsus kasb - hunar o`quv yurtlarida ta`lim mazmunining ilmiy asoslari. Ilmiy-texnikaviy va ma`naviy - ma`rifiy taraqqiyotning ta`lim mazmuniga ta`siri.

Ta`lim mazmunini belgilovchi hujjatlar: o`quv rejasi, o`quv dasturi, darslik va qo`llanmalar. Ularni takomillashtirish yo`llari. O`rta-maxsus, kasb - hunar ta`limining davlat ta`lim standarti.

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta'lim mazmunini takomillashtirish.

2.1.17. Turli tipdagi kasb - hunar kollejlari ta'lim metodlari. Turli tipdagi kasb - hunar kollejlari ta'limni tashkil etishning tashkiliy shakllari. Turli tipdagi kasb - hunar kollejlari o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning reyting va test usullari. (2soat).

O'qitish metodlari va ta'limning tashkiliy shakllari haqida ma'lumot. O'quv - biluv faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari. Ta'lim jarayonida o'quv faoliyatini rag'batlantirish, nazorat va o'z - o'zini nazorat metodlari. Bilim, ko'nikma va malakalarini test-reyting tizimida baholash.

Yan Amos Komenskiy tomonidan sinf - dars tizimining ilmiy asoslanishi. Kasb - hunar kollejlari ta'limni tashkil etishning an'anaviy va noan'anaviy shakllari. Dars ta'limni tashkil etishning asosiy shakli sifatiga. Darsga qo'yiladigan pedagogik talablar. Hozirgi zamon o'rta maxsus ta'lim yurtlarida o'qitishning fakultativ, ekskursiya, konferentsiya kabi turlari. Dars turlarining o'zaro bog'liqliligi.

Modulli o'qitish tizimining mohiyati va maqsadlari. O'quv fanlarini o'qitishda makromodullar. Modulli o'qitish samaradorligini oshirish usullari va printsiplari. Kognitiv vizdallik, xatolarga tayanish, o'quv vaqtini tejash, motivatsiya (qiziqishni uyg'otish) modul tizimining muhim printsiplari sifatida.

V bob. O'rta maxsus, kasb - hunar bilim yurtini boshqarish va unga rahbarlik qilish. (6soat)

2.1.18. O'rta maxsus, kasb - hunar bilim yurtini boshqarish va unga rahbarlik qilishning nazariy - pedagogik asoslari. Kasb - hunar kollejlari boshqarishning printsiplari, shakl va metodlari. (2s).

Boshqarish va rahbarlik haqida umumiy tushuncha. Boshqarish turlari va vazifalari. Milliy mustaqillik sharoitida kasb - hunar kollejlari o'ziga xos xususiyatlari va unga rahbarlik qilishning pedagogik asoslari. Buyuk mutafakkirlar talqinida boshqaruv masalalari: Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Amir Temurning «Tuziklari»da boshqarish. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunda boshqarish masalalari.

Boshqarish printsiplari haqida ma'lumot. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13 may 1998 yildagi 204 Qarorida qabul qilingan Nizom asosida boshqarish. Kasb-hunar kollejlari boshqarishning demokratik, rejalilik, samaradorlik va tejamkorlik kabi printsiplari.

Boshqarish usullari to'g'risida tushuncha. boshqarishning tashkiliy-ma'muriy, sotsial - psixologik, huquqiy, bevosita ko'rsatma berish, rag'batlantirishdan foydalanish, kadrlarni ma'naviy jihatdan rivojlantirish, kuzatish, suhbat, hujjatlarni tahlil qilish kabi usullari. Boshqarish printsiplari va usullarining o'zaro bog'liqliligi.

2.1.10. 2.1.19. Kasb - hunar kollejlari ichki nazoratining tashkiliy-pedagogik asoslari. Kasb - hunar kolleji rahbarining ish uslubi va obro'si. (2s)

O'quv yurti ichidagi boshqaruv haqida ma'lumot. O'quv yurti ichki boshqaruv tiziminig manbalari. Ichki boshqaruv tizimida rahbarlik faoliyati va madaniyati. Kollej direktori, o'rinbosarining ichki nazorattizimida vazifalari. Ichki boshqaruv tizimida dars, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy tadbirlarni kuzatish hamda pedagogik tahlil qilishning o'rni, ichki boshqaruv tizimida o'quv yurti inspeksiyasi, uning ish mazmuni, shakli va usullari. Zamonaviy kollejlarda faoliyati samaradorligini baholash mezonlari. O'quv yurti pedagoglari kengashi ta'lim – tarbiya ishlariga jamoa rahbarligining yuqori organi sifatida.

Kasb - hunar ta'limi tizimida rahbarlik san'ati. Rahbarning ish uslubi: omilkorligi, tadbirkorligi, ishbilarmonligi. Rahbarlikda ta'lim - tarbiyaviy va xo'jalik ishlarining bir - biriga bog'liqligini amalga oshirish mahorati. Rahbarning fazilatlari: yuksak bilim, siyosiy ong egasi bo'lish; adolatli va kamtarin bo'lish; sezgir va e'tiborlilik; pedagogik jamoa, ota-onalar, jamoatchilik fikrini ilg'ay olish, keng dunyoqarashli izlanuvchan, ilg'orlikka ijobiy baho beruvchi shaxs bo'lish malakalarini egallash.

Rahbarning rasmiy va norasmiy muloqotlari. Pedagogik intuitsiya, odob, nazorat egasi bo'lish. Rahbarlikning psixologik xususiyatlari.

2.1.20. Kasb - hunar kollejini kadrlar bilan ta'minlash, ularni joy - joyiga qo'yish va malakasini oshirish. O'quv yurti ishini rejalashtirish, metodik ishlar, dars kuzatish va uni tahlil qilish. O'quv yurtida ilgor pedagogik tajribalarni shakllantirish, umumlashtirish va yoyish (2s).

O'quv yurtini pedagog xodimlar bilan ta'minlash haqida tushuncha. Pedagog xodimlarni tanlash va ularni joy - joyiga qo'yish. O'qituvchilar va tarbiyachilar pedagogik mahorati hamda malakasini oshirish. Pedagog xodimlar o'z ustida ishlashni tashkil qilish, malaka va mahoratni oshirishning muhim sharti sifatida. Pedagog xodimlar malakasini tuman (shaxar) metodik komissiyalar, malaka oshirish institutlarida takomillashtirish. Yosh o'qituvchilar ishini tashkil qilish. Ustoz-murabbiylik maktabi. O'qituvchi – tarbiyachilarning ma'naviy - ma'rifiy o'quvlarini tashkil qilish, pedagog xodimlar attestatsiyasi (kasbiy sinf)ni o'tkazish malaka oshirishning muhim tarkibiy qismi.

Kasb - hunar kolleji ishini rejalashtirish ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning muhim omili. O'quv yurti ishini rejalashtirishning maqsadi va ahamiyati. Kasb - hunar kollej ish rejasining turlari va uning tamoyillari. O'quv yurtida metodik ishlar: metodik ishlar, metodik kengash, fan - metodik birlashmalari, guruh rahbarlari, o'quv yurti rahbarlari faoliyatida amalga oshirish. Kollej ishini rejalashtirishning bugungi kun talablarini amalga oshirishda o'rni.

Ilg'or pedagogik tajribalar haqida ma'lumot. Ilg'or pedagoglar tajribasini shakllantirish, umumlashtirish va yoyishning o'quv yurti ta'lim-tarbiya tizimida tutgan o'rni va ahamiyati. Zamonaviy fan texnika yutuqlarini ta'lim-tarbiya

jarayoniga tadbqiq etish. Ilg'or o'qituvchilar, tarbiyachilar tajribalarini shakllantirish, umumlashtirish yoyishning mazmuni shakllari va metodlari.

Kasb - hunar kolleji ukituvchi-tarbiyachilarning pedagogik-psixologik tadqiqot ishlariga jalb qilish. O'qituvchi – tarbiyachilarning ilmiy - amaliy konferetsiyalari. Ilg'or tajribalarni umumlashtirish va yoyishga oid hujjatlar: kuzatish, tahlil daftarlari, ijro qaror va boshqa nazorat ishlarini ruyhatga olish, ijroni nazorat qilish daftarlari.

2.2. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLAR. ULARNING TARKIBI VA AJRATILGAN SOATLAR MIQDORI

2.2.1. Pedagogika fanining mavzusi va ilmiy tadqiqot metodlari.(2soat)

1.2.2. Mutaxassis shaxsini shakllantirish, tarbiyalash va rivojlantirish (2soat)

1.2.3. Barkamol avlod tarbiyasining maqsad va vazifalari. (2soat)

1.2.4. O'zbekistonda tarbiya va ta'lim tizimi (2soat)

1.2.5. O'rta Osiyoda pedagogika tarixi fanining maydonga kelishi va rivojlanishi, manbalari. (2soat)

1.2.6. Temuriylar davridan XIX asrning birinchi yarmida O'. Osiyoda ijtimoiy hayot, tarbiya, maktab va pedagogik fikr (2soat)

1.2.7. O'rta Osiyo va O'zbekistonda XIX asrning ikkinchi yarmi hamda XX asrda maorif, tarbiya, maktab va pedagogik fikr. (2soat)

1.2.8. Qadimgi Yunoniston va Evropada tarbiya, maktab va pedagogik fikr. (Suqrot, Platon, Aristotel'). Evropada XVI-XX asrda tarbiya, maktab va pedagogik fikr. (2 soat)

1.2.9. (Yan Amos Komenskiy, Jon Jak Russo, K.D. Ushinskiy, Makarenko, V. Suxomlinskiy. (2soat)

1.2.10. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikr. (2 soat)

1.2.11. Tarbiya jarayonining mohiyati, printsiplari. Sharqona tarbiyaning nazariy, milliy asoslari. Tarbiya metodlari. (2 soat)

1.2.12. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini tarbiyalash. Ma'naviy-axloqiy tarbiya. (2 soat)

1.2.13. Yuksak madaniyatli mutaxassis va uning huquqiy, iqtisodiy, ekologik tarbiyasi. (2 soat)

1.2.14. Bola tarbiyasida oila, o'quv yurti, mahalla va jamoatchilik hamkorligi. (2 soat)

1.2.15. Kasb-hunar kollejlarda ma'naviy- ma'rifiy tarbiya ishlarini tashkil etish. (2 soat)

1.2.16. Didaktika fanining predmeti va vazifalari. Ta'lim jarayonining mohiyati, qonuniyati, printsiplari. Turli tipdagi kasb-hunar kollejlarda ta'limning mazmuni. (2 soat)

1.2.17. Turli tipdagi kasb-hunar kollejlarda ta'lim metodlari. Turli tipdagi kasb-hunar kollejlarda ta'limni tashkil etishning tashkiliy shakllari. Turli tipdagi kasb-hunar kollejlarda o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning reyting, test usullari. (2 soat)

1.2.18. O'rta maxsus, kasb-hunar bilim yurtini boshqarish va unga rahbarlik qilishning nazariy-pedagogik asoslari. Kasb-hunar kollejlari boshqarishning printsiplari, shakl va metodlari.. (2 soat)

1.2.19. Kasb-hunar kollejlari ichki nazoratining tashkiliy-pedagogik asoslari. Kasb-hunar kolleji rahbarining ish uslubi va obro'si. (2 soat)

1.2.20. Kasb-hunar kollejini kadrlar bilan ta'minlash, ularni joy-joyiga kuyish va malakasini oshirish. O'quv yurti ishini rejalashtirish, metodik ishlar, dars kuzatish va uni tahlil qilish. O'quv yurtida ilg'or pedagogik tajribalarni shakllantirish, umumlashtirish va yoyish. (2 soat)

2.3. MUSTAQIL ISH MAZMUNI

Talabaning bu o'quv faoliyati institut professor - o'qituvchilari rahbarligida tashkil qilinadi. Talaba tanlagan mavzu bo'yicha ma'ruzalarda berilgan ma'lumotlarni ilmiy metodik adabiyotlardan foydalanib to'ldiradi, ilmiy metodik adabiyotdagi ta'lim tarbiya masalasiga doir mavzuni mustaqil o'rganadi, fikr yuritadi, tahlil qiladi va fikrlarini isbotlaydi. Chuqurlashtirilgan yakka tartibdagi dasturlar bilan tanishadi va ularni o'zlashtiradi. Pedagogikaning nazariy metodologik asoslarini mustaqil o'qituvchi tavsiyasiga qarab o'rganadi.

Dasturda talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlarni nazorat qilish usullari turlicha bo'lib, ular suhbat, o'quv - metodik qo'llanmalarga taqriz yozish, seminar, ma'ruza, topshiriqlar matnini yozma tarzda bajarish, pedagogik masalalarni echish, test, krossvord tuzish, ilg'or o'qituvchilar tajribasini o'rganib, ular faoliyatidan namunalar keltirishni nazarda tutadi.

MUSTAQIL ISH TARKIBI

1. Barkamol insonni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va merosdan foydalanish. (2 soat)
2. Hadislarning o'quvchilarni madaniy-ma'naviy tarbiyasida o'rni. (2 soat)
3. Milliy qadriyatlarning ta'lim va tarbiyadagi o'rni. (2 soat)
4. Tarbiyachining ma'naviy saviyasi. (2 soat)
5. Talabalar uyida tarbiyaviy ishlar tizimi. (2 soat)
6. Kasb mahorati va uning mazmuni. (4 soat)
7. Muxandis-muallim shaxsining kasbiy sifatleri. (4 soat)
8. Tarix saboqlari va mustaqillik istiqbollari. (4 soat)
9. Madaniy meros ma'naviyat va mafkura. (4 soat)
10. Ozod Vatan, obod Vatan. (4 soat)
11. Ilmiy pedagogik adabiyotlar va tezis to'zish texnikasini o'rganish. (4 soat)
12. Yangi pedagogik texnologiyani ta'lim tarbiya jarayonida tadbiq etish. (4 soat)
13. O'qitish metodlarini okilona tanlash va qo'llash jadvalini to'zish. (2 soat)
14. O'qitish shakllarini turli xilda o'zgartirish (ijodiy darslar namunasini to'zish). (2 soat)
15. Dars ishlamasi (konspekti)ni tuzish. (4 soat)
16. O'quvchilar bilim, ko'nikma, malakalarini reyting usulida baholash jadvalini to'zish. (2 soat)

17. O'tmish allomalarining pedagogik faoliyatiga oid ma'ro'za matni to'zish. (2 soat)
18. Kurs ishini bajarish bo'yicha reja ishlanma tuzish. (2 soat)
19. Kalendar mavzuli reja to'zish metodikasini egallash. (2 soat)
20. Dars jarayonida o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash metodikasini o'zlashtirish. (2 soat)

.TALABALAR BILIMINI ORALIQ BAHOLASH MEZONLARI

Ma'lumki Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining kengash qarori bilan (2000 yil fevral) talabalar bilimini reyting tizimida baholashni yanada takomillashtirish qabul qilingan.

Shunga asosan oraliq baholashda yozma ishlar usuli qo'llaniladi.

I. Oraliq nazorat bosqichida baholash

(Oraliq nazorat yozma ish (savollarga javob yozish))

Referat mashinkada pechatlangan 10-12 bet, qo'lda yozilgan 13-15 betni tashkil qilishi, yozma savollarga javoblar (variantlar bo'yicha) 650-750 so'zdan iborat bo'lishi lozim. Fikrlar izchil, mantiqan bir-biri bilan bog'langan, tushunarli, har bir reja yoki savol punktini savodli yoritgan bo'lishi shart. Yozma ish mavzuga monand, ijodiy va mustaqil tuzilishi zarur. Yozma ishlar uchun quyidagi baho mezonini belgilanadi.

«86 ball dan 100 ball gacha» ball quyidagi ishga quyiladi:

- a) masala mazmuni (ya'ni reja punkti yoki savolga javob) to'g'ri batafsil yoritilgan, adabiyotlar tahlili, masalaga bog'liqligi uni izohlash darajasi aniq yozilgan va bayon qilingan bo'lsa;
- b) fikrni ifodalanishida mantiqiy izchillik bo'lib, xulosalar aniq isbotlangan bo'lsa;
- c) ish aniq, tushunarli, ilmiy-amaliy yo'nalishda yoritilib, 1-2 unga qo'pol bo'lmagan, mavzu mazmunini ifodalashga unchalik halaqit bermasa.

«71 ball dan 85 ballgacha» ball quyidagi ishga qo'yiladi:

- a) referat rejasi va savol punkti qolipga tushib qolgan tafsilotda bo'lmasa, ya'ni fikrlarni erkin, mustaqil bayon qilish sezilib tursa, mulohazalarni izchil bayon qilishva isbotlab olish ko'rinib turgan bo'lsa;
- b) ishdagi fikrlar to'g'ri, izchil, o'zbek adabiy tilida yozilgan, ammo fikrni bayon qilishda unga qo'pol bo'lmagan ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;
- c) reja punktida, unga ahamiyatli bo'lmagan punktlardan biri chala bayon qilinib, ishning umumiy bayoniga unchalik zarar keltirgan bo'lmasa. Ishning hajmi 18-19 bet qo'lyozma, 8-10 bet mashinada 450-600 iborat bo'lsa.

«55 ball dan 70 ball gacha» ball kuyidagi ishga kuyiladi:

- a) reja tuzishda izchillik, mavzu asosan to'g'ri ochib berilsayu, ammo bayon qilishda yoki savolga javob yozishda ba'zi bir noaniqliklarga yo'l quyilib, fikrni to'liq va izchil bayon qilish buzilgan bo'lsa;
- b) reja punktidagi savollardan biri chala yoki umuman yechimini topmay, masala mazmuni to'la yechimini topmay qolgan bo'lsa;

c) fikrlar erkin, mustaqil bayon kilingan bo'lsa-yu, masalani yoritish maromiga etmay qolgan bo'lsa. Ishning hajmi 8-10 bet qo'lda, 6-8 bet mashinada yozilgan bo'lib, yozma ishlardagi so'zlar soni 400-500 tani tashkil etadi.

«55 balldan past» ball quyidagi ishga qo'yiladi:

- a) talaba mavzuni tushunmaganligi yoki masala ma'lumotlarini juda zaif bilganligi yozilib turgan bo'lsa;
- b) mavzu mazmuni (savolga javob) to'liq yoritilmagan yoki masala (savol) mazmunidan chetga chiqqan bo'lsa;
- c) mavzu talab etgan masala darslik, ma'ruza matnlaridan ko'chirilgan bo'lib, talabaning mustaqil fikri, bayoni ko'zga tashlanmasa;
- d) fikrni bayon qilishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lib, ishning hajmi 4-5 bet qo'lda, 2-3 bet mashinada, yoki yozma savollarga javoblar 300-350 so'zni tashkil etgan bo'lsa.

2.5. Baxolash mezonlari.

Predmet:

Pedagogika

Yo'nalish

MBIQ,MTMJA,MTMJ

Kurs

2

Mavsum

3

Ma'rusa soatlari miqdori

40

Amaliy va tajriba soatlari miqdori

40

№	Ishning mazmuni	Ballarning taqsimlanishi										Jami ball
		N1	N2	N3	1 juftlik				ON1	ON2	YaN	
					Jami	56%	71%	86%				
1	Amaliy va tajriba mashg'ulotlar	12	12	12	1,8	1,01	1,28	1,55				36
	Talabani darsdagi faollik darajasi	8	8	8	1,2	0,67	0,85	1,03				
	Seminar konspekti mavjudligi	4	4	4	0,6	0,34	0,43	0,52				
2	Mustaqil ishlar	8	8	8	1,2	0,67	0,85	1,03				24
	testlar tuzish	2	2	2	0,3	0,17	0,21	0,26				
	krossvordlar tuzish	3	3	3	0,45	0,25	0,32	0,39				
	Internet va boshqa materiallar	3	3	3	0,45	0,25	0,32	0,39				
Jami:		20	20	20	3	1,68	2,13	2,58				60
3	Oraliq nazorat											25
	Savol-javob, (ON 1-test, ON 2-test)								10	15		
Jami:									10	15		
4	Yakuniy nazorat											15
	Yozma ish 5 ta savol. Har bir savolga 3 ball beriladi. Jami 15 ball.										15	
	Agar test shaklida o'tkazilsa - 30 ta test vazifa – 1 ta to'g'ri javob 0,5 ball)										15	
Jami:		20	20	20					10	15	15	100

PEDAGOGIKA FANIDAN SEMINAR MAVZULARI VA REJALARI

1. Kirish. Pedagogika fanining mavzusi va ilmiy-tadqiqot metodlari.

Mashg'ulot maqsadi: Talabalar ongida pedagogika fani to'g'risida aniq tushunchalar shakllanishiga erishish.

Reja:

1. Pedagogika fani to'g'risida tushuncha.
2. Pedagogikaning asosiy tushunchalari (kategoriyalari) – tarbiya, ta'lim, ma'lumot, o'quv jarayoni.
3. Pedagogikaning tadqiqot metodlari.
4. Pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar». Toshkent 1992 yil.
2. Karimov I.A. «O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosiy mafkura». Toshkent 1993 yil.
3. Munavvarov A.K. «Pedagogika» Toshkent «O'qituvchi» 1996 yil
4. Kravtsov N.I. «O'rta hunar-texnika bilim yurtida metodik ishlarni tashkil etish va unga rahbarlik qilish» Toshkent «O'qituvchi» 1988 yil.
5. Shodiev N. «Studentlarga o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish». Toshkent «O'qituvchi» 1987 yil.
6. Rajabov S.R. «Tarbiya va o'qitish haqida klassik ta'limot» Fan. Toshkent 1991 yil.

2. Mutaxassis shaxsini shakllantirish, tarbiyalash va rivojlantirish.

Mashg'ulot maqsadi: Talabalar bilan birgalikda mutaxassis shaxsini shakllantirishga ta'sir qiladigan omillar to'g'risida fikr almashib , ularda mustaqil fikrlash qobiliyatini to'g'ri shakllantirish.

Reja:

1. Mutaxassis shaxsining shakllanishida tarbiyaning ta'siri
2. Mutaxassis shaxsining shakllanishida mustaqil fikrning o'rni.
3. Raqobatbardor mutaxassis shaxsini tarbiyalash.
4. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy ta'lim modeli.
5. Mutaxassisning o'z-o'zini tarbiyalashi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Istiqlol yo'li: muammolar va rejalar». Toshkent 1992 yil.
2. Karimov I.A. «O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisodsiyosiy mafkura». Toshkent 1993 yil.
3. Munavvarov A.K. «Pedagogika» Toshkent «O'qituvchi» 1996 yil
4. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin.» Toshkent "O'zbekiston" 1996 yil.
5. Shodiev N. «Studentlarga o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini

o'rgatish». Toshkent «O'qituvchi» 1987 yil.

6. Rajabov S.R. «Tarbiya va o'qitish haqida klassik ta'limot» Fan. Toshkent 1991 yil.

3. Barkamol avlod tarbiyasining maqsad, vazifalari.

Mashg'ulot maqsadi: Talabalarning barkamol avlod tarbiyasi to'g'risidagi fikrlarini tahliliy o'rganib, ular ongiga ma'naviy va insoniy sifatlarni singdirish.

Reja:

1. I.A.Karimov barkamol avlod tarbiyasi to'g'risida.
2. I.A.Karimov barkamol avlod tarbiyasida milliy istiqlol g'oyasining o'rnini to'g'risida.
3. I.A.Karimov ma'naviyat va insoniy sifatlarning shaxs shakllanishidagi o'rnini to'g'risida.
4. Barkamol insonni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va me'rosimizdan foydalanish.
5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy yo'nalishlari.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Istiqlol va ma'naviyat». Toshkent "O'zbekiston" 1994 yil.
2. Karimov I.A. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti poydevori». Toshkent 1997 yil.
3. Davletshin M.G. "O'quvchilarda qobiliyatni tarkib topishi" Toshkent "O'qituvchi" 1998 yil
4. Munavvarov A.K. «Pedagogika» Toshkent «O'qituvchi» 1996 yil
5. Safo Ochil "Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari" "O'qituvchi" 1997 yil
6. Shodiev N. «Studentlarga o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishlarini o'rgatish». Toshkent «O'qituvchi» 1987 yil.
7. Rajabov S.R. «Tarbiya va o'qitish haqida klassik ta'limot» Fan. Toshkent 1991 yil.

4.O'zbekistonda tarbiya va ta'lim tizimi (2soat)

Mashg'ulot maqsadi: Talabalarda O'zbekistonda xalq maorifi tizimining rivojlanish xususiyatlari to'g'risida mustaqil tushunchalar shakllantirish.

Reja:

- 1.O'zbekistonda xalq maorifi tizimining rivojlanish xususiyatlari.
2. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari.
3. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari.
4. Kasb-hunar kollejlari ta'limining davlat ta'lim standarti.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Istiqlol va ma'naviyat». Toshkent "O'zbekiston" 1994 yil.
2. Karimov I.A. «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti poydevori». Toshkent 1997 yil.

3. Davletshin M.G. “O`quvchilarda qobiliyatni tarkib topishi” Toshkent “O`qituvchi 1998 yil
4. Munavvarov A.K. «Pedagogika» Toshkent «O`qituvchi» 1996 yil
5. Safo Ochil “Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari” “O`qituvchi”1997 yil
6. Shodiev N. «Studentlarga o`quvchilarni kasb tanlashga yo`llash ishlarini o`rgatish». Toshkent «O`qituvchi» 1987 yil.
7. Rajabov S.R. «Tarbiya va o`qitish haqida klassik ta’limot» Fan. Toshkent 1991 yil.

5. O`rta Osiyoda pedagogika tarixi fanining maydonga kelishi va rivojlanishi, manbalari. (2soat)

**Mashg`ulot maqsadi:** Talabalar bilan O`rta Osiyoda pedagogik fikrlarning paydo bo`lishi, rivojlanishi va manbalari to`g`risida fikr almashib, ularning bu jarayonga bo`lgan munosabatini to`g`ri shakllantirish.

Reja:

1. O`rta Osiyoda pedagogik fikrlarning paydo bo`lishi.
2. Kadim zamondan VII asrgacha O`rta Osiyodagi pedagogik fikr.
3. VII –XIV asrning birinchi yarmida O`rta Osiyodagi pedagogik fikr.
4. Xadis ilmining paydo bo`lishi.
5. B.Zarnujiy, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiyning pedagogik qarashlari.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Istiqlol va ma’naviyat». Toshkent “O`zbekiston” 1994 yil.
2. Karimov I.A. «O`zbekiston - milliy istiqlol, iqtisod, siyosiy mafkura». 1-jild Toshkent “O`zbekiston” 1996 yil.
3. Zunnunov L. «O`zbek pedagogikasi tarixi» «O`qituvchi» 1997 yil
4. «Pedagogika tarixidan xrestomatiya» (tuzuvchi: O.Xasanboev) Toshkent «O`qituvchi» 1996 yil
5. «O`zbekiston pedagogikasi antologiyasi» (tuzuvchilar K. Hoshimov va S.Ochilov) Toshkent «O`qituvchi» 1996 yil

6.Temuriylar davridan XIX asrning birinchi yarmida O`. Osiyoda ijtimoiy hayot, tarbiya, maktab va pedagogik fikr (2soat)

**Mashg`ulot maqsadi:** Temuriylar davridan XIX asrning birinchi yarmigacha O`. Osiyoda ijtimoiy hayot, tarbiya, maktab va pedagogik fikr to`g`risida talabalar fikrlarini tahliliy o`rganib, ularda vatanparvarlik hissiyotlarini chuqurlashtirishga erishish.

Reja:

1. XIV-XVI asrlarda Movaraunnaxrda ijtimoiy hayot va uning ta’lim-tarbiya, pedagogik fikrga ta’siri.
2. Maktablar va madrasalarda ta’lim-tarbiya harakatlari.
3. Muhammad Tarag’ay, Mirzo Ulug’bekning ilm va ma’rifat sohasidagi xizmatlari.

4. Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Al - Koshifiy, Zaxiriddin Muhammad Bobirning maktab, madrasalarni rivojlantirishdagi faoliyatlari va axloqiy – ma’rifiy qarashlari.
5. Nodiraning pedagogik qarashlari.
6. Jahon Otin - Uvaysiy va uning qizlar maktabi.
7. Muxammad Rizo Ogahiy va uning «Ogohnoma» qoidasi. Kaykovusning «Qobusnoma», Sa’diyning «Guliston», «Bo’ston» asarlarida axloqiy ma’rifiy g’oyalarning yoritilishi.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Istiqlol va ma’naviyat». Toshkent “O’zbekiston” 1994 yil.
2. Karimov I.A. «O’zbekiston - milliy istiqlol, iqtisod, siyosiy mafkura». 1-jild Toshkent “O’zbekiston” 1996 yil.
3. Zunnunov L. «O’zbek pedagogikasi tarixi» «O’qituvchi» 1997 yil
4. «Pedagogika tarixidan xrestomatiya» (tuzuvchi: O.Xasanboev) Toshkent «O’qituvchi» 1996 yil
5. «O’zbekiston pedagogikasi antologiyasi» (tuzuvchilar K. Hoshimov va S.Ochilov) Toshkent «O’qituvchi» 1996 yil

7.O’rta Osiyo va O’zbekistonda XIX asrning ikkinchi yarmi hamda XX asrda maorif, tarbiya, maktab va pedagogik fikr. (2soat)

Mashg’ulot maqsadi: Talabalarda O’rta Osiyo va O’zbekistonda XIX asrning ikkinchi yarmi hamda XX asrda maorif, tarbiya, maktab va pedagogik fikr to’g’risida asosli fikrlar paydo qilishga erishish.

Reja:

1. Rossiya istilosi davrida tashkil etilgan maktablar.
2. Turkiston o’lkasidagi ma’rifatparvar shoirilar (Furqat, Avaz O’tar, Anbar Otin) ijodida ta’lim va tarbiya ruhi.
3. Ahmad Donish ma’naviy merosining ahamiyati.
4. Turkistonda yangi usul maktablarining paydo bo’lishi.(Bexbudiy, Munavvar Qorining faoliyati. X.X. Niyoziy, A. Shaforiy, A. Avloniy, S. Ayni, Ibrat)
5. Sho’rolar davrida O’zbekistonda maorif tizimi.
6. 60-80 yillarda maktab, maorif va pedagogik fikr G’.G’ulom, A. G’ayraty, O. Sharofiddinovning hayoti, faoliyati, pedagogik g’oyalari.
7. Mustaqil O’zbekistonda ta’lim-tarbiya va pedagogik fikr

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. «Istiqlol va ma’naviyat». Toshkent “O’zbekiston” 1994 yil.
